

# "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi

// 16.12.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/zakovat-intellektual-o-yini-tashkil-etildi>



Xodimlarning bilim va fikrlash qobiliyatini sinovdan o'tkazish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zkimyosanoat" AJ xodimlari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi.

Unda Jamiyat markaziy apparati xodimlaridan tuzilgan 9 ta jamoa ishtirok etdi.



Qizg'in va murosasiz, bahslarga boy o'tgan bellashuvda eng kuchlilar saralandi. G'olib jamoalarga "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Shuningdek, avval xabar berganimizdek, Gimnastika barcha uchun shiori ostida o'tkazilgan Gimnastrada o'yinlarining Prezident kubogi musobaqalarida "O'zkimyosanoat" AJ xotin-qizlari jamoasi ham yorqin chiqishlari bilan ishtirok etib, "Kompozitsiyaning o'ziga xosligi" nominatsiyasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Jamoa a'zolarining xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi va jismoniy madaniyatni rivojlantirishdagi harakatlari e'tirof etilib, jamiyat tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

